



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdaги “Инфляция таргетлаш режимиға босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5877-сонли Фармони.

International Monetary Fund (2024). Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2024 Article IV Mission. Washington, DC: IMF.

олбоев М. (2023). Ўзбекистоннинг фискал ва монетар сиёсати ташқи савдо дефицити ўсишиға қандай таъсир қилмоқда? // *Gazeta.uz*.

10. Edwards S. (2015). Monetary Policy Independence under Flexible Exchange Rates: An Illusion? // *The World Economy*, 38(5): 773-787.

Frankel J. (2010). Monetary Policy in Emerging Markets. In: Friedman B.M., Woodford M. (eds.) *Handbook of Monetary Economics*, Volume 3B. Amsterdam: Elsevier, 1439-1520.

12. Mishkin F.S. (2009). Globalization, Macroeconomic Performance, and Monetary Policy // *Journal of Money, Credit and Banking*, 41(s1): 187-196.

UDK:336.5

**DAVLAT XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH
МЕХАНИЗМЛАРИ**

**МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ
РАСХОДОВ**

**MECHANISMS FOR ASSESSING THE EFFICIENCY OF PUBLIC
EXPENDITURES**

Rejapov Xayrillo Xikmatillayevich

О‘zbekiston Milliy universiteti,
Moliya kredit kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, tahlil jarayonida natijadorlik, tejamkorlik va samaralilik mezonlari asosida davlat xarajatlari ta’sirini aniqlash uslublari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bundan tashqari, davlat moliyasining barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xarajatlari, samaradorlik, baholash mexanizmlari, budjet siyosati, natijaga yo‘naltirilgan byudjet, audit tizimi, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье глубоко проанализированы механизмы оценки эффективности государственных расходов, а также их роль в экономическом развитии. Кроме того, в процессе анализа научно обоснованы методы определения воздействия государственных расходов на основе критериев результативности, экономичности и эффективности. Также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на обеспечение устойчивости государственных финансов, повышение эффективности социальных программ и рациональное использование ресурсов.

Ключевые слова: государственные расходы, эффективность, механизмы оценки, бюджетная политика, бюджетирование, ориентированное на результат, система аудита, экономическая эффективность.

In this article, the mechanisms for assessing the efficiency of public expenditures and their role in economic development are thoroughly analyzed. In addition, the study scientifically substantiates methods for determining the impact of public spending based on the criteria of effectiveness, economy, and efficiency. Furthermore, scientific proposals and practical recommendations are developed to ensure the sustainability of public finance, enhance the effectiveness of social programs, and promote the rational use of resources.

Keywords: public expenditures, efficiency, evaluation mechanisms, budget policy, results-based budgeting, audit system, economic efficiency.

Hozirgi davrda davlat moliyasini samarali boshqarish, budget mablag‘laridan oqilona foydalanish hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga ta‘sirini baholash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Global miqyosda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shaffoflikni ta‘minlash va natijadorlikka asoslangan budget tizimini shakllantirish tendensiyalari davlat xarajatlari samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli farmonida ham alohida ta‘kidlangan bo‘lib, unda davlat moliyasining ochiqligini ta‘minlash, budget mablag‘laridan foydalanish natijadorligini oshirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan[1]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 24-avgustdagi “Davlat moliya boshqaruvini takomillashtirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4807-sonli qarori davlat xarajatlarining natijaviyligini baholash va ularni optimallashtirish bo‘yicha huquqiy asos yaratgan desak adashmaymiz[2]. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlarini o‘rganishning dolzarbligi shundan iboratki, u budget siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda davlat resurslarini maqsadli va shaffof taqsimlash imkonini beradi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda ilmiy tahlillar olib borish va baholash tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy ishlarni bajarish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatini barqarorlashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[3].

Adabiyotlar tahlili xorijiy iqtisodchilarning fikrlari bilan solishtirilganda, masalan, amerikalik iqtisodchi A. Wildavsky o‘zining “The Politics of the Budgetary Process” asarida budget jarayonining faqat texnik emas, balki siyosiy xarakterga egaligini ta‘kidlaydi[4]. Uning fikriga ko‘ra, har qanday natijaviy byudjetlashtirish tizimi siyosiy manfaatlar, manfaatdor guruhlar bosimi va resurslar uchun kurash sharoitida ma‘lum darajada cheklangan bo‘ladi.

Mashhur iqtisodchi Joseph Stiglitz davlat xarajatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z asarlarida shaffoflik va hisobdorlikning ahamiyatini ta‘kidlagan bo‘lsa-da, u raqamli monitoring tizimlarining haddan tashqari markazlashuvi ayrim holatlarda byurokratik jarayonlarni kuchaytirishi mumkinligi haqida ham ogohlantiradi[5]. Bu tanqidiy nuqtai nazar shuni anglatadiki, raqamli tizimlar joriy etilishi davlat xarajatlarini optimallashtirsa-da, noto‘g‘ri boshqaruv bo‘lsa, aksincha ortiqcha tartib-taomillarni yuzaga keltirishi ehtimoli bor.

Mahalliy tadqiqotlar qatorida D.Fayzullayev o‘z ilmiy ishida davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, ularni monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalasiga e‘tibor qaratadi[6]. Fayzullayev davlat moliyasi tizimida natijadorlik, tejamkorlik va maqsadlilik mezonlari bo‘yicha baholash metodologiyasini joriy etish zaruriyatini asoslaydi. Uning fikricha, budget mablag‘laridan oqilona foydalanish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini muntazam o‘lchab borish davlat boshqaruvi sifatini oshiruvchi asosiy omildir. Biroq, mahalliy tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilganda, ularning aksariyati nazariy yondashuvga tayangan bo‘lib, amaliyotda uchraydigan real cheklovlar ma‘lumotlar kamligi, monitoring tizimlarining yetarli raqamlashtirilmagani yoki kadrlar salohiyatining pastligi - yetarli darajada yoritilmaganini ko‘rish mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat xarajatlarining samaradorligini baholash nafaqat mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta‘minlaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning natijadorligini oshirish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va davlat boshqaruvida hisobdorlikni

kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, xalqaro tajriba va mahalliy tadqiqotlar solishtirilganda, O‘zbekistonda ushbu mexanizmlarni samarali joriy etish uchun huquqiy baza bilan bir qatorda mustaqil auditi kuchaytirish, raqamli ma’lumotlar sifatini oshirish va indikatorlar tizimini takomillashtirish zarurligi ko‘rinadi.

Moliyaviy mexanizm nima, degan savolga aniqlik kiritib olsihimiz zarur. Demak, moliyaviy mexanizmlar – bu davlat yoki tashkilotning moliyaviy resurslarini boshqarish, taqsimlash va ularni samarali ishlatish jarayonini tashkil etuvchi vositalar, qoidalar va tartiblar majmuasi hisoblanarkan. Ular iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Davlat moliyasi samaradorligini oshirish mexanizmlari esa moliyaviy mexanizmlarning bir qismi bo‘lib, budget mablag‘larini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va optimallashtirish jarayonlarini tashkil etadi.

Moliyaviy mexanizmlarga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

1. Budget tizimi – davlat daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish va taqsimlash tizimi. Milliy budget, mahalliy byudjetlar va maxsus fondlar bu tizimga misol bo‘la oladi.

2. Soliq va yig‘imlar mexanizmi – davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish, soliq va boshqa majburiy yig‘imlar orqali mablag‘ jalb qilish. Misol tariqasida daromad solig‘i, QQS va bojxona yig‘imlarini keltirish mumkin.

3. Davlat qarzi va kredit mexanizmlari – budget yetishmovchiligini qoplash yoki iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish uchun qarz mablag‘larini jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Bu ichki va tashqi davlat qarzi, obligatsiyalar chiqarish orqali amalga oshiriladi.

4. Moliyaviy nazorat va audit tizimi – xarajatlar va daromadlarning qonuniy, shaffof va samarali ishlatilishini ta’minlash vositasi hisoblanadi. Ichki va tashqi audit, moliyaviy monitoring va elektron hisob-kitob tizimlari bunga misol bo‘la oladi.

5. Investitsion mexanizm – davlat mablag‘larini investitsiya loyihalariga yo‘naltirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy natija olish imkonini beradi. Infratuzilma, sanoat va qishloq xo‘jaligi loyihalari investitsion mexanizmning amaliy ko‘rinishidir.

6. Transfertlar va subsidiyalar mexanizmi – mablag‘larni hududlar, tashkilotlar yoki aholiga maqsadli tarzda taqsimlashni ta’minlaydi. Ijtimoiy yordam, mahalliy budjetlarni qo‘llab-quvvatlash va sohalarga grantlar buning misolidir[7].

Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish mexanizmlari ushbu moliyaviy mexanizmlarning amaliy ishlatilishidir. budget mablag‘larini natijaga yo‘naltirilgan tarzda rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari orqali iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va resurslardan oqilona foydalanish ta’minlanadi. Raqamli monitoring va elektron audit tizimlari esa bu jarayonni shaffof va hisobdor qiluvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

Davlat xarajatlarini samarali boshqarish va ularning natijadorligini baholash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Global iqtisodiy muhitda resurslar cheklanganligi, shaffoflik va hisobdorlik talablari ortishi davlat budjeti samaradorligini oshirish zaruratini yanada oshirmoqda. Oqilona va natijaga yo‘naltirilgan budget siyosati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida davlat xarajatlarining dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash ya’ni davlat moliyasi samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga bevosita ta’sir qiladi. To‘g‘ri rejalashtirilgan xarajatlar mamlakat ichki ishlab chiqarish, infratuzilma rivoji va investitsiya faoliyatini rag‘batlantiradi.

- Ijtimoiy farovonlikni oshirish - budget mablag‘larining samarali ishlatilishi ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohalarida aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshiradi. Bu esa xalqning farovonligini, ish o‘rinlari yaratishni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

- Resurslardan oqilona foydalanish shuni anglatadiki, davlat xarajatlarining samaradorligini baholash orqali resurslar optimal taqsimlanadi, ortiqcha xarajatlar kamayadi va moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

- Shaffoflik va hisobdorlik ya’ni dolzarb vazifa - davlat mablag‘larining ochiq va hisobdor tarzda ishlatilishini ta’minlash. Raqamli monitoring va elektron audit tizimlari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi[8].

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda tahlil va monitoring tizimlari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va elektron tizimlar yordamida xarajatlar real vaqt rejimida kuzatiladi, loyiha yoki dasturlarning ijrosi baholanadi. Bu nafaqat mablag‘larning qayerga sarflanganini aniqlashga imkon beradi, balki resurslar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Yuqoridagi xarajatlarining samaradorligini baholashda indikatorlar tizimi muhim vosita hisoblanadi. Har bir soha va dastur uchun maxsus ko‘rsatkichlar belgilash orqali, mablag‘lar qanday natijalarga olib kelayotganini aniqlash mumkin. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida mablag‘lar asosida yangi klinikalar ochilishi, mavjud muassasalarda jihozlar yangilanishi va tibbiy xizmat sifatining oshishi indikator sifatida xizmat qiladi. Shunday indikatorlar orqali xarajatlarning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi o‘lchanadi.

Foydalanuvchi va aholining fikrini inobatga olish ham samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Davlat dasturlarining natijasi aholiga xizmat sifatida qaytishi shart, shuning uchun monitoring jarayonida foydalanuvchilarning mulohazalari va ijtimoiy so‘rovlar hisobga olinadi. Bu tizimning nafaqat texnik, balki ijtimoiy jihatdan ham samarali ishlashini ta‘minlaydi. Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyati va boshqaruvning malakali bo‘lishi muhim omil hisoblanadi. Raqamli tizimlar va monitoring vositalari mavjud bo‘lsa-da, ularni to‘g‘ri boshqarish va natijalarni tahlil qilish malakali mutaxassislar ishtirokini talab qiladi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash va ularning professional salohiyatini oshirish ham samaradorlikni ta‘minlashning ajralmas qismidir.

Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv elementlarini o‘z ichiga oladi. Har bir element bir-birini to‘ldiradi: iqtisodiy barqarorlik uchun mablag‘lar oqilona taqsimlanadi, ijtimoiy farovonlik oshadi, shaffoflik va hisobdorlik esa jamiyatning davlat moliyasiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. O‘zbekiston moliya tizimining har bitta mexanizmi quyidagi jadvaldan qanday o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari 2021–2023-yillarda, foizda(%)

№	Mezon	Ko‘rsatkich (%)	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Natijadorlik	Davlat dasturlarining bajarilish darajasi	78%	82%	86%
2	Tejamkorlik	Xarajatlarning optimallik darajasi	6.5%	7.1%	8.3%
3	Shaffoflik indeksi	Ochiq budget ballari (0-100)	59	63	68
4	Audit qamrovi	Auditdan o‘tgan budget tashkilotlari	41%	55%	72%
5	Raqamlashtirish	Elektron monitoring o‘tgan jarayonlar	48%	66%	79%
6	Ijtimoiy ta‘sir	Ta‘lim va sog‘liq uchun ajratmalar	31%	34%	36%
7	Loyiha samaradorligi	Muvaffaqiyatli yakunlangan davlat investitsiya loyihalari	62%	69%	74%
8	budget intizomi	O‘z vaqtida bajarilgan budget majburiyatlari	84%	88%	91%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi. “Davlat budjeti va moliya boshqaruvi bo‘yicha yillik hisobotlar” asosida muallif tomonidan tuzilgan[9].

Mazkur jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2021–2023 yillar davomida O‘zbekistonda davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish borasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Natijadorlik ko‘rsatkichlari (davlat dasturlarining bajarilish darajasi) 78% dan 86% gacha oshib, budget siyosatining natijaga yo‘naltirilganligini tasdiqlaydi. Tejamkorlik mezoni bo‘yicha xarajatlarning optimallik darajasi 6,5% dan 8,3% ga yetib, mablag‘larning oqilona taqsimlanishi ta‘minlanganini

ko‘rsatadi. Shaffoflik va hisobdorlik mezonlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan: ochiq budget ballari 59 dan 68 ga oshgan, audit qamrovi 41% dan 72% gacha kengaygan. Bu davlat moliyasining shaffofligi va mustaqil nazorat mexanizmlarining samaradorligini isbotlaydi. Raqamlashtirish darajasi 48% dan 79% gacha oshgan bo‘lib, bu elektron monitoring va raqamli audit tizimlarining samarali joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy ta‘lim va sog‘liqni saqlashga ajratmalar) 31% dan 36% gacha oshib, budget mablag‘larining ijtimoiy maqsadlarda maqsadli ishlatilishini tasdiqlaydi (1-jadval).

Investitsion loyihalarning muvaffaqiyatli yakunlanishi 62% dan 74% ga o‘lib, loyiha samaradorligi yaxshilanganini ko‘rsatadi. budget intizomi mezoni esa 84% dan 91% ga oshgan, bu moliyaviy majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilayotganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning davlat xarajatlarini boshqarish tizimi va ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarining barqaror ijobiy rivojlanishini, budget siyosatining shaffof va natijaga yo‘naltirilganligini ilmiy asosda isbotlaydi.

Bu o‘rganib qilgan tahlilimiz natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari sursak maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Natijaga yo‘naltirilgan budget tizimini yanada takomillashtirish – davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish uchun budget rejalashtirish jarayonida har bir dastur va loyiha natijaviy ko‘rsatkichlari aniq belgilanishi, monitoring va baholash mexanizmlari tizimli ravishda joriy etilishi zarur. Bu mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta‘minlaydi.

2. Raqamli monitoring va elektron audit tizimlarini kengaytirish – xarajatlar shaffofligini va hisobdorligini oshirish maqsadida barcha budget tashkilotlarida elektron hisob-kitob va monitoring tizimlarini keng joriy etish, real vaqtda ma‘lumotlar bazasini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu o‘z navbatida audit jarayonlarini tezlashtiradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

3. Ijtimoiy va investitsion loyihalarni samaradorligini baholash mexanizmlarini kuchaytirish – ta‘lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma loyihalarining natijadorligini muntazam baholash va resurslarni optimal taqsimlash orqali ijtimoiy farovonlikni oshirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli yakunlangan investitsiya loyihalarining tajribasi asosida yangi loyihalarni rejalashtirish samaradorlikni yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi “Davlat moliya boshqaruvini takomillashtirish strategiyasi”ga PQ–4807-sonli Qarori. <https://lex.uz/>
3. “Davlat moliya boshqaruvini takomillashtirish: amaliyot va nazariy yondashuvlar.” <https://green-eco.uz/index.php/GED/article>
4. Wildavsky, A. The Politics of the Budgetary Process. New York: Harper & Row, 1984.
5. Stiglitz, J. Public Finance and the Efficiency of Government Expenditure. New York: Norton, 2000.
6. Fayzullayev, D. “Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish mexanizmlari.” Ilmiy ish, Toshkent, 2019, 138 b.
7. “Moliyaviy boshqaruv tizimi va uning samaradorligi.” <https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article>
8. “How does the IMF encourage greater fiscal transparency?” 2023. <https://www.imf.org/en/about/factsheets/sheets/2023/how-does-the-imf-encourage-greater-fiscal-transparency>
9. O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi. “Davlat budjeti va moliya boshqaruvi bo‘yicha yillik hisobotlar” (2021–2023).